

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI XORIJIY TILLAR
FAKULTETI INGLLIZ TILI AMALIY
KURSI KAFEDRASI**



**Globallashuv sharoitida
kommunikativ tillarni
o'qitish tashabbuslari
Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy
konferensiya
TO'PLAMI**

JIZZAX-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI XORIJIY TILLAR
FAKULTETI INGLIZ TILI AMALIY KURSI KAFEDRASI
GLOBALLASHUV SHAROITIDA KOMMUNIKATIV TILLARNI O‘QITISH
TASHABBUSLARI
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2024-yil, 24-oktyabr**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JIZZAK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY, FACULTY OF FOREIGN
LANGUAGES, DEPARTMENT OF ENGLISH LANGUAGE PRACTICAL
COURSE
INITIATIVES FOR TEACHING COMMUNICATIVE LANGUAGES IN AN
ERA OF GLOBALIZATION
international scientific-practical conference
October 24, 2024**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ, ФАКУЛЬТЕТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ, КАФЕДРА
ПРАКТИЧЕСКИЙ КУРС АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА,
КОММУНИКАТИВНЫЕ ИНИЦИАТИВЫ ПО ПРЕПОДАВНИЮ ЯЗЫКА В
ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ
международных научных и научно-практическая конференция
24-октября, 2024г**



“Globallashuv sharoitida kommunikativ tillarni o‘qitish tashabbuslari”

Xalqaro onlayn ilmiy –amaliy konferensiya materiallari

Ma’sul muharrir:

Mamatov Abdugafur Eshonqulovich - f.f.d.professor

Tahririyat a’zolari:

S.B.Xamidova, O.A.Xolmurodova, G.Z.Ganiyeva, X.B.G‘aniyeva, G.B.Gafurova

Taqrizchilar:

D.B.Otajonova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

Texnik sahifalovchilar

S.B.Xamidova, U.B.Usmonova, O.A.Xolmurodova

135. Altinboyev Nuriddin. <i>TURK TILIDA “OILA” LEKSEMASINING MA’NOLARI MAYDONI</i>	665
136. Ahmadjonova Zilolaxon Anvarjon qizi, Amirova Nigora. <i>PUL TUSHUNCHASINING TURK TILSHUNOSLIGIDA O’RGANILISHI MASALASIGA DOIR</i>	669
137. Kudratov Kamoljon Islomovich. Ismatov Suxrob Raximqulovich <i>DUNYODA JUDA KO’P YAXSHI KITOBLAR BOR</i>	675
138. Davlatova Xulkaro, Abduraxmonova Xulkaroy. <i>BADIIY ADABIYOT VA GAZETA MATNLARIDA SARLAVHALARNING KONSEPTUAL AHAMIYATI</i>	680
139. Xamzayev Sobir Amirovich. <i>FAN VA TEXNIKA TARAQQIYOTI VA UNING INGLIZ ADABIY TILI LUG‘AT TARKIBINI BOYITISHDAGI O’RNI</i>	686
140. Barziyev Oybek Xabibullayevich, Barchinoy Sayitxonova Axatovna <i>FARZAND DOG‘IDA KUYGAN YURAKLAR</i>	691
141. Turdimurodova U.D, Abdurashidova Visola. <i>LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF COMMON PHRASES IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE (BASED ON TRANSLATIONS OF GEORGE ORWELL'S WORKS INTO UZBEK)</i>	698
142. Komilova Soliyajon Ollabergan qizi. <i>CHARACTERISTICS OF STYLISTIC TOOLS</i>	701
143. Ходжиева Г.Н. <i>АНАЛИЗ И СРАВНЕНИЯ ЯЗЫКОВЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ГЕНДЕРНОЙ КОММУНИКАЦИИ НА ПРИМЕРЕ ИТАЛЬЯНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ</i>	704
144. Turdimurodova U.D, Abdurazzaqova Sevinch. <i>AN INVESTIGATION OF THE ETYMOLOGICAL AND SOCIAL VIEWPOINTS OF COLLOQUIAL EXPRESSIONS</i>	706

145.	<i>Turdimurodova Umida, Akramov Aybek.</i>	<i>VIRGINIA WOOLF: A PIONEERING VOICE IN ENGLISH LITERATURE.....</i>	<i>711</i>
146.	<i>Turdimurodova U.D, Amanbayeva Farangiz.</i>	<i>PHRASOLOGISM USAGE IN LITERARY WORKS: AN ANALYSIS OF ITS FUNCTIONS AND EFFECTS</i>	<i>714</i>
147.	<i>Kholmurodova Olima Abdivaliyevna.</i>	<i>THE MYTH OF TURKIC NATIONS: A HISTORICAL AND CULTURAL OVERVIEW.....</i>	<i>719</i>
148.	<i>Kholmurodova Olima Abdivaliyevna.</i>	<i>RUSSIAN CUMULATIVE FOLK TALES: AN IN-DEPTH EXPLORATION.....</i>	<i>722</i>
149.	<i>Kholmurodova Olima Abdivaliyevna.</i>	<i>LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF UZBEK FOLK TALES.....</i>	<i>728</i>
150.	<i>Xamidova Sevara Baxtiyorovna.</i>	<i>PARADOKSNING KOGNITIV TABIATI</i>	<i>733</i>
151.	<i>Xamidova Sevara Baxtiyorovna.</i>	<i>INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK PARADOKSLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARI.....</i>	<i>750</i>
152.	<i>Dodoyeva Mehribonu, Turdimurodova Umida.</i>	<i>ANALYSIS OF PHRASEOLOGY IN THE WORKS OF GEORGE ORWELL.....</i>	<i>760</i>
153.	<i>Turdimurodova U.D, Eliboeva N.</i>	<i>A BRIEF DATA ABOUT PHRASEOLOGIES USED IN THE WORKS OF GEORGE ORWELL.....</i>	<i>764</i>
154.	<i>Turdimurodova U.D, Bekturodova Farzona.</i>	<i>THE IMPORTANCE OF CULTURAL SENSITIVITY IN THE CONTEXT OF ORWELL'S POLITICAL THEMES.....</i>	<i>768</i>
155.	<i>Zoirova S. J, Turdimurodova U. D.</i>	<i>SATIRIC WORKS OF GEORGE ORWELL</i>	<i>772</i>
156.	<i>Turdimurodova U.D, Mahmudjonov Ibrohim.</i>	<i>USING ENGLISH PHRASEOLOGIES DURING CLASSES TO UNIVERSITY STUDENTS.....</i>	<i>776</i>

6. Shirinova R.H., Rakhimova G.A. and others. Representation of the national picture of the world in literary translation. International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 29, No. 5, (2020), pp.1436-1445.

https://www.researchgate.net/publication/340966581_REPRESENTATION_OF_THE_NATIONAL_PICTURE_OF_THE_WORLD_IN_LITERARY_TRANSLATION?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIiwicGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwcmV2aW91c1BhZ2U0iJw dWJsaWNhdGlvbiJ9fQ

TURK TILIDA “OILA” LEKSEMASINING MA’NOLARI MAYDONI

Nuriddin Altinboyev

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Turkshunoslik oliy maktabi katta o‘qituvchisi, PhD*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy turk tilidagi “oila” so‘zining ma’nolar maydoni ochib berilgan. Ushbu birlik “o‘g‘ush” tarzida ko‘kturk yodgorliklarida sof turkiyda ifodalangan bo‘lsa, usmoniylar davrida va hatto, hozirgi kunda ham arab tilidan o‘zlashgan “oila” so‘zi orqali ifodalanadi. Ushbu birlik turk tilining izohli lug‘atlari hamda usmonli turkchasi ensiklopedik lug‘atlari yordamida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, birlik, lug‘at, ma’nolar maydoni, qadimgi turkiy til, usmonli turkchasi, zamonaviy turk tili.*

Abstract: *This paper reveals the range of meanings of the word “family” (aile) in Turkish. This unity is expressed in purely Turkic language in the Gokturkic monuments in the style of “o‘g‘ush”, and is expressed by the word “aile” borrowed from Arabic during the Ottoman period and even modern Turkish language now. This unit is revealed with the help of Turkish dictionaries and Ottoman-Turkish Encyclopedic Dictionary.*

Keywords: *family, unity, lexicon, semantic field, ancient Turkic language, Ottoman Turkish, modern Turkish.*

Til tarixiy taraqqiyot davomida o‘zgarishlarni boshdan kechiradi: u shakllanadi, ma’lum o‘zgarishlarga uchraydi yoki butunlay iste’moldan chiqadi, ya’ni o‘lik tilga

aylanadi. Buni til tarkibidagi leksemalarga vaqt o'tishi bilan yangidan yangi ma'nolarning qo'shilishi, ba'zi bir ma'nolarning o'z ahamiyat yoxud qo'llanilish doirasining yo'qolishi bilan izohlash mumkin. Mazkur maqolada turk tilidagi "oila" leksemasining ma'nolari, tarixdan hozirgi kungacha uchragan o'zgarishlari va uning ayni paytga kelib tarkibini tashkil etgan tushunchalari Usmonlilar davri lug'ati⁷⁷ va Turkcha lug'atning 8-nashri⁷⁸ va 10- nashr⁷⁹laridan foydalangan holda atroflicha izohlab beriladi.

Biror bir xalqni, millatni yaxshi anglash uning ijtimoiy tuzilmasini yaxshi o'rganib chiqishni taqozo etadi. Turk millatining ijtimoiy holatini o'rganishning eng ishonchli usuli turk yozma manbalariga murojaat qilishdir. Ushbu manbalarning avvalida, albatta, Ko'kturk yodgorliklari keladi, chunki Ko'kturk davlat tashkiloti va ijtimoiy tuzilmasi o'zidan keyingi davlar va turk davlatchiligi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'kturk yodgorliklarida turklarning ijtimoiy hayotini ifoda etuvchi quyidagi atamalarni uchratamiz: *oğuş* – oila, *urug* – oilalar birlashmasi, *bod* – urug', qabila, *bodun* – qabilalar ittifoqi, *il* – mustaqil jamiyat, davlat⁸⁰. Qadimgi turklarda davlat boshqaruvchisi bo'lgan Xoqonlar xalqqa murojaat qilganida o'ziga yaqin insonlardan boshlab, "...oğlanım, oğuşum..."⁸¹ tarzida nutq irod qilganlar. Oila ko'kturkcha lug'atida *oğuş* so'zi bilan ifodalangan bo'lsa, "Devoni lug'otit turk"da *oymak* – qarindosh, xesh⁸² ma'nolarida keladi.

Oila so'zi usmonli turkchasi ensiklopedik lug'atida izohlanishiga ko'ra, arab tilidan kirgan jamlovchi ot bo'lib, uning bosh ma'nosi biror kishining *xotini*, *ayoli* tarzida ifodalangan. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, usmoniylar davrida oila deyilganda, garchand bu leksik birlik jamlovchi ot bo'lsa-da, birinchi navbatda xotin, ayol ya'ni jam emas, yakka ot nazarda tutilgan, hozirga kelib esa, bu so'z jamiyatning qondoshlikka asoslangan kichik birliginiturmush va qon rishtalariga tayanuvchi, *er*,

⁷⁷Develioğlu, Ferit, Osmanlıca-Türkçe ansiklopedik lûgat, Aydın kitapevi, Ankara 2008

⁷⁸Türkçe sözlük, Ankara 1988, 8.baskı

⁷⁹Türkçe sözlük, Ankara 2005, 10.baskı

⁸⁰ Gömeç, S. Türk ailesine genel bir bakış. Aile yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – s.3.; Mandaloğlu, M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s. 483.

⁸¹ <https://www.sabah.com.tr/egitim/ogus-ne-demek-tarihte-eski-turk-aile-yapisinda-ogus-nedir-ve-ne-anlama-gelir-e1-5994897>

⁸² <https://www.turkceindirilisi.com/sozluk.html?search=oğuş&type=complex>

xotin, farzandlar va qarindoshlarni ifodalab kelmoqda. Usmonlicha lugʻatda ikkinchi maʼnosi *akraba* yaʼni qondosh, qarindosh; uchinchi maʼnosi *ev halkı* yaʼni uy, xonadon aʼzolari tarzida qisqa ifodalangan. Qolgan ikki lugʻatda esa bu tushunchalar uchinchi, toʻrtinchi va beshinchi maʼnolarida bir nasldan chiqqan kishilar zanjiri, oralarida qarindoshlik yoki qondoshlik rishtalari mavjud kishilarning barchasi va birga yashaydigan qarindosh va yaqinlarning hammasi shaklida kengroq va ochiqroq bayon qilingan. Sakkizinchi va oʻninchi nashrdagi turk tilining izohli lugʻatlarida ikkinchi maʼno tariqasida, *oila* – er, xotin va bolalardan tashkil topgan jamoa tarzidagi izoh oʻrin olgan. Oltinchi maʼnosida esa bu soʻz *er va xotin* juftligini ifodalashi keltirib oʻtilgan, yaʼni yaqinda turmush qurgan yosh kelin-kuyovlar yoki farzandi yoʻq er-xotinlar ham *oila* deb ataladi. Demak, turk xalqida, hozirgi kunga kelib, *oila* deganda er, xotin va ularning farzandlari nazarda tutilar ekan. Bundan tashqari, turklarda bir maqsad va gʻoya yoʻlida birlashgan insonlar jamoasiga nisbatan ham *oila* soʻzi ishlatiladi. Bu leksema usmoniylar davridan to hozirgi vaqtgacha ushbu maʼnosini saqlab kelmoqda – *Milli eʼgitim ailesi- Milliy taʼlim oilasi* (usmoniylar lugʻatida 4-maʼnosi, turkcha lugʻatlarda 7-maʼno).

Ijtimoiy gumanitar, tabiiy fanlar rivojlanishi natijasida tilga yangi-yangi tushunchalar, atamalar kirib keldi. Til sohasi tadqiq qilinishi oqibatida bir-biriga yaqin yoki kelib chiqishi ayni bir tilga borib taqaladigan tillarni guruhlashtirib, til oilalari ishlab chiqildi: oltoy tillar oilasi, hind-yevropa tillari oilasi. Hayvonot va nabodot olamining chuqur oʻrganilishi va ularning maʼlum guruhlariga boʻlib tadqiq etilishi samarasi oʻlaroq, bir biriga oʻxshash va yaqin oʻsimlik va hayvonlar oilalari vujudga keldi (kosagullilar oilasi, ignabarglilar oilasi; mushuksimonlar oilasi, sutemizuvchilar oilasi vb).

Yuqorida keltirib oʻtilganidek, usmoniylar davrida *oila* deyilganda faqatgina xotin (kari) tushunilgan va bu soʻz ham arabcha va forsha **zevce, refika, avret/avrat** soʻzlari bilan ifodalangan. Hozirda turk tilida ularning oʻrnida **Kari, Kadın, Hanım, Hatun** soʻzlari qoʻllanadi.

Urf, odat, udum-anʼana va huquq qoidalariga muvofiq quriladigan *oila* – ona, ota va farzandlardan iborat jamiyatning eng asosiy ijtimoiy jamoasidir. Shuningdek, turk

jamiyati uchun muqaddas hisoblanuvchi oila, shu jamiyatning an'ana, udum, til, din va boshqa o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda davom etib kelayotgan eng kichik tamal bo'lagidir. Turk jamiyatida oilaning nechog'lik ahamiyatga molik ekanligi Turkiya Jumhuriyati Konstitutsiyasining 41-moddasida "Oila jamiyatning asosidir" tarzida o'z ifodasini topgan⁸³.

"Oila" so'zi hozirgi kunda turli guruhlarni ifodalash uchun ishlatiladi. "*Hasan iyi bir aileydi*" deyilganda, Hasanning mas'uliyatli ota va er ekanligi tushuniladi. "*Benim ailem Adana'dan gelmiş*" (Mening oilam Adanadan kelib qolgan) deyilganda esa, ota-onasining, hatto ota-bobolarining ham Adanada istiqomat qilganligi ma'lum bo'ladi. "*Bu bir aile toplantısıdır*" (Bu oila majlisi) jumlasidan esa bu majlis faqat qarindoshlar orasida bo'lib o'tishi anglashiladi. Ularga amaki, tog'a, amma, xola, jiyanlar va oilaga turmush qurilgach qo'shilgan kishilar jamoasi kiradi⁸⁴. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oila leksemasining ma'nolar maydonida har doim turmushga va qon-qardoshlikka tayanuvchi aloqa-munosabatlarni o'z ichiga olishini bilib olishimiz mumkin.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshi an'analarni o'z bag'rida avaylab kelajak avlodga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga – jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham sharqda oilaga azaldan muqaddas qo'rg'on sifatida qarab kelingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Develioğlu, Ferit, Osmanlıca-Türkçe ansiklopedik lûgat, Aydın kitapevi, Ankara 2008
2. Gömeç, S. Türk ailesine genel bir bakış. Aile yazıları / 7, Birinci baskı. – Ankara: Aralık 2015. – s.3.; Mandaloğlu, M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, Cilt -4, Sayı -8, Temmuz -2022. – s. 483.

⁸³ <http://www.sanalda1numara.net/sosyal-konular/117642-aile-kavrami-ve-toplumdaki-yeri.html>

⁸⁴ <http://www.turkcebilgi.com/ansiklopedi/aile>

3. Türkçe sözlük, Ankara 1988, 8.baskı
4. Türkçe sözlük, Ankara 2005, 10.baskı
5. <https://www.sabah.com.tr/egitim/ogus-ne-demek-tarihte-eski-turk-aile-yapisinda-ogus-nedir-ve-ne-anlama-gelir-e1-5994897>
6. <https://www.turkceindirilisi.com/sozluk.html?search=oğuş&type=complex>
7. <http://www.sanalda1numara.net/sosyal-konular/117642-aile-kavrami-ve-toplumdaki-yeri.html>
8. <http://www.turkcebilgi.com/ansiklopedi/aile>

PUL TUSHUNCHASINING TURK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI MASALASIGA DOIR

Ahmadjonova Zilolaxon Anvarjon qizi
TDSHU Turkshunoslik oliy maktabi filologiya yo‘nalishi
4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Amirova Nigora

Annotasiya. Mazkur ilmiy tadqiqot ishining **maqsadi** turk tilshunosligida “pul” tushunchasining lisoniy tahlili asoslarini aniqlash, ushbu mavzudagi ilmiy ishlarni tanqidiy tadqiq qilish, shu asosda mazkur muammoning o‘rganilishi dolzarb bo‘lgan jihatlarini asoslashdan iboratdir.

Tayanch so‘z va iboralar: “pul” tushunchasi, semantika, tadqiqot ishi, turk maqollari, turk frazeologik iboralari.

Ma’lumki, fanda “pul” tushunchasining tilda aks etishi muammosi tadqiqot obyekti sifatida bir qator olimlar ishlarida tahlilga tortilgan bo‘lib, ushbu tadqiqotlarda “pul” leksema, tushuncha yohud konsept tarzida har bir tilning lisoniy dunyo qarashidan kelib chiqib turli xil tasvirlanadi. Qayd etish lozimki, “pul” tushunchasi turk tilshunosligida ham tahlilga tortilgan bo‘lib, bu mavzuda qilingan ishlarning asosiy qismi “pul” tushunchasining turli leksemalar bilan ifodalanishi va ularning semantik tadqiqiga bag‘ishlangan. Shu bilan birga, turkshunoslar tarafidan “pul” tushunchasi